

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI RIVOJLANTIRISHNIG MUHIM AHAMIYATI

**Xurramova Aziza Abdurasul qizi**

**Kenjayeva Munira Nabijon qizi**

**Ahmedova Iroda Shoyimnazar qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi  
3BT-21-GURUH TALABALARI

**ANNOTATSIYA:** Nutq o'stirishda metodik vositalar hamda didaktik o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu maqolada nutq o'stirish tushunchasi, o'quvchilar nutqini o'stirishning mavjud ahvoli, ona tili darslarida nutq o'stirishning shakl va vositalari, nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida hamda nutq o'stirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutq o'stirish, nutq jarayoni, tarbiya, so'z, bog'lanishli nutq, tarqatma, didaktik material, ertak, hikoya, badiiy asar, metodik, didaktik o'yin.

Inson yetuk shaxs bo'lib yetishishda nutq jarayoni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq uni riojlanishi insonlararo turlicha bosqichlarda umr bo'yi davom etadi. Vaholanki, o'quvchilarda nutq jarayonini rivojlantirishning bir qancha sinovdan o'tgan usullari mavjud. Bular asosan rivojlangan davlatlar metodikalarni o'z ichiga olgan. Chunki, o'z samaradorligi bilan ijobjiy natijalari ko'rsatgan. Hozirgi vaqtida ko'proq bolalar nutqida buzilishlarga duch kelmoqdalar. Ko'pgina ota-onalar mutaxassisning yordamiga murojaat qilmasdan nutq xatolarini tuzatish mumkinmi, degan savolga qiziqish bildirmoqda. Biz sizga yordam berishga harakat qilamiz! Bolaning jismoniy, aqliy va intellektual tarbiyasi erta bolalikdan boshlanadi. Barcha ko'nkmalar, jumladan, to'g'ri gapirish qobiliyati oilada o'zlashtiriladi. Bolaning nutqi qarindoshlari, yaqin odamlari misolida shakllanadi. Bola nutqining tovush chiqaruvchi tomoni kattalarning alohida ta'siri va yordamisiz mustaqil ravishda rivojlanadi, degan chuqur noto'g'ri fikr. Aslida, bolalar nutqini shakllantirish jarayoniga aralashmaslik deyarli har doim rivojlanishning kechikishini anglatadi. Bolalikda ildiz otgan nutq nuqsonlari keyingi yillarda katta qiyinchilik bilan bartaraf etiladi. Bolaning erta yoshdan boshlab to'g'ri aniq nutqni eshitishi juda muhim, uning namunasi o'zinikidir.

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun nutq mакtabda muvaffaqiyatli ta'lif olish qurolidir. Biz tilini jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlanirib, bo'yitib kelgan ajdodlarning vorislaramiz. O'quvchilarni tilning mavjud imkoniyatlaridan nutq jarayonida maqsadga muvofiq foydalana olishga o'rgatish mакtab ona tili ta'limi oldida turgan mas'uliyatlari vazifalardan sanaladi. O'quvchilarni faqat o'qituvchi rahbarligidagina emas, balki o'zlarini mustaqil ravishda ishlashga ham o'rgatib boriladi. Darsning 8-10 minutini mustaqil ishslashga ajratish uni qiziqarli o'tkazishda didaktik materiallar katta yordam beradi. Savod o'rgatish davrida didaktik materiallardan foydalanish nutqni o'stirish ishining asosiy poydevori bo'lib xizmat etadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tagiga bo'g'in va so'zlar yozilgan turli rasmlı kartochkalardan foydalaniladi, bolalarning hali o'qish-yozishni bilmasliklarini hisobga olib, bunday rasmlı kartochkalarni guruhlarga bo'lib, konvertlarga solinadi va har bir konvert ustiga shu narsaning nomini yozib, rasmi yopishtiriladi. Bu konvertlar o'quvchilarga ulashiladi. Bolalar konvert ichidagi narsani konvert ustidagi rasmga qarab o'qish malakasini hosil qilgach esa konvert ustidagi yozuvni o'qish yo'li bilan ajratib, topshiriqni mustaqil bajaradilar. O'qituvchi

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

o'quvchilarning shu rasmlarda tasvirlangan narsalar bilan tanish yoki tanish emasligini kuzatadi, ularga shu rasmlar haqida qisqa va tushunarli savollar beradi va savollariga javob oladi. Masalan, konvertlar ichidan uy hayvonlarining rasmlarini olish va tagidagi so'zni o'qish vazifasi topshiriladi. Bolalar o'qituvchining bu topshirig'ini bajaradilar: rasmlarni olib, so'zlarni o'qiydilar. Agar so'zning bosh harfi yoki bir bo'g'ini tushirilgan bo'lsa, nuqtalar o'miga unga mos harf yoki bo'g'inni kesma alfavitdan topib to'ldiradilar. Mustaqil ishslashda didaktik tarqatmalardan qancha ko'p foydalanilsa, o'zlashtirish shuncha yaxshi bo'ladi.

Har bir narsa uchun juda ko'p andazalar (applikatsiyalar) tayyorlash va didaktik ishlar jarayonidà ulardan o'rinli foydalanish o'quvchini ijodkorlikka undaydi. Masalan, mevalarning rasm-andazasiga qarab ishslashda quyidagi topshiriqni berish mumkin:

- Bolalar, mana bu yerda olma, o'rik, shaftolilarning rasmlarini ko'rdik, yana qanday mevalar bo'ladi? Hammangiz o'z konvertingizdan qolgan meva rasmlarini olib, partaga tering-chi. O'quvchilar bu ishni zavq bilan bajaradilar. O'qituvchi o'quvchilar ishidan vazifaning qanchalik to'g'ri bajarilganligini ko'zdan kechiradi. Bu kabi ishlarni sabzavot, uy-ro'zgor asboblari, gullar rasmi ustida ham o'tkazish mumkin. Uquvchilar mustaqil ishlarni juda qiziqib tez va yaxshi bajarishga, o'rtoqlari oldida o'z bilimini namoyish qilishga intiladilar.

Didaktik materiallar maktabga turli tayyorgarlikda kelgan bolalar bilan bir vaqtda, xilma-xil usullardan foydalanilgan holda ishslashga ham katta yordam beradi. O'qituvchi vazifani tez bajarishga ulgurayotgan bolalarga didaktik materialarning murakkablaridan, uydan kelgan bolalarga esa soddaroqlaridan berib, unga mos vazifalar topshiradi. O'qituvchi o'quvchilarga qizil, sariq, ko'k rangdagi narsalarni ko'rsatib qanday narsalar: meva, sabzavot o'yinchoqlar shunday rangda bo'lishini so'raydi. SHundan keyin bolalar olcha, anor, kulupnay, pomidor, bayroq kabi bir qator narsalarning qizil rangdaligini eslab, aytadilar. Bunday mustaqil fikrlash bolalarning aktivligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi, lug'atini boyitadi. Turli xildagi o'yinlar: cho'plardan turli shakllar; burchak, to'rtburchak, narvoncha va ayrim xarf shakllarini yasash boshqa ishlar bilan navbatlashtirib olib boriladi. Bu ishlar uchun dars orasida 7-8 minut vaqt ajratiladi. Didaktik materiallardan o'quvchilarning erkin ijodiy ishlarida ham foydalanish mumkin. Uquituvchininä ruxsati bilan o'quvchilar, rangli shakllardan foydalanib, turli qutichalar, gilamcha rasmlarini chizadilar. Bu mashgulotlardan bolalar burchak, tomon, o'ng, chap, ost, ust haqida konkret tasavvur hosil qiladilar, o'rtoqlari bilan hamjihat bo'lib ishslashga o'rganadilar.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shami. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy sanoat, ashuladarslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladngan tadbirlarning ham vazifasidir.

Bolalar nutqini o'stirishda turli xil didaktik o'yinlarni tez-tez tashkil etish yo'lli bilan berilayotgan bilimni tez o'zlashtirish imkonini tug'iladi. Agar o'yin bolalarga dinamik tarzda o'rgatilsa, ular o'yinni o'rganib olganlarini sezmay qoladilar, o'yin jarayonida o'quv materiallarini puxta o'zlashtirishga asli qiyalmaydilar. "O'yinlar bolalarning to'g'ri o'sishida juda muhim rol o'ynaydi. Bola o'yinga butun borlig'i bilan kirishib ketadi. O'yin jarayonida uning nutqi tez rivojlanadi". O'yinlar, xususan didaktik o'yinlar, bolalarning tabiiy ehtiyoji-harakatchanligiga juda mos keladi. Shuning uchun ham bolalar o'yinni juda sevadilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nutq o'stirish mashq'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

asarlarni qayta hikoya qilib berishga o‘rgatish va ularni sahnalashtirish, she’rni yod oldirish o‘qituvchiga katta mahorat va mas’uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo‘lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg‘ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo‘ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug‘atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz o‘qituvchining asar yuzasidan bergen savollariga javob bera oladilar, ayrim so‘zlarni, jumlalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o‘qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozini o‘xshatishga harakat qiladilar. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarning yuqori darajada aqliy va nutqi y rivojlanishini, ularning til qobiliyatları shakllanishini ta’minalash imkonini beruvchi usullarni tashkil etishning maqbul shaklini izlash, nazariy va amaliy tadqiqotlarda bunday o‘quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etish yuzasidan yangicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, berilayotgan ta’lim sifati natijadorligini ta’minalash zamонавиy o‘qituvchidan katta pedagogik mahorat, yuqori kompetentlik va ijodkorlikni talab etadi.

## Foydalaniman adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutq // Xalq so'zi. - Toshkent, 2019 yil 22 oktyabr. - № 218. - B. 1-4.
2. Azimova I.A. Ona tili ta'limalda lisoniy malakanı rivojlantirishning psixolingvistik asosi.// "Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent: O'TAU, 2019, 20-aprel. 219-bet.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Maktabgacha muassasalarxonimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Respublika o‘quvmetodika Markazi // Bolajon tayanch dasturi.T.:2010. 213 b.
5. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq,6. R. Ergashev. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida yestetik madaniyatni shakllantirish nazariysi va amaliyoti. Monografiya. - T., “O‘qituvchi”, 2017
7. cyberleninka.ru
8. universalpublishings.com